

**QORAQALPOQ TABIIY FANLAR ILMIY TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.04.2021.B.79.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
O‘ZBEKISTON-FINLANDIYA PEDAGOGIKA INSTITUTI**

MAMADIYAROV MUZAFFAR UMIRZAQOVICH

***PAULOWNIA TOMENTOSA, CHITALPA TASHKENTENSIS, VINCA
MINOR* O‘SIMLIKLARINING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI VA
ULARDAN ATMOSFERA HAVOSINI OPTIMALLASHTIRISHDA
FOYDALANISH (SAMARQAND SHAHRI MISOLIDA)**

03.00.10 – Ekologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Nukus – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Mamadiyarov Muzaffar Umirzaqovich

Paulownia tomentosa, Chitalpa tashkentensis, Vinca minor o‘simliklarining bioekologik xususiyatlari va ulardan atmosfera havosini optimallashtirishda foydalanish (Samarqand shahri misolida)3

Мамадияров Музаффар Умирзакович

Биоэкологические свойства *Paulownia tomentosa, Chitalpa tashkentensis, Vinca minor* и их использование в оптимизации атмосферного воздуха (на примере города Самарканда).....21

Mamadiyarov Muzaffar Umirzakovich

Bioecological features of *Paulownia tomentosa, Chitalpa tashkentensis, and Vinca Minor* plants and their use in optimizing atmospheric air. (in the case of Samarkand city)41

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....45

**QORAQALPOQ TABIIY FANLAR ILMIY TADQIQOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.04.2021.B.79.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON-FINLYANDIYA PEDAGOGIKA INSTITUTI

MAMADIYAROV MUZAFFAR UMIRZAQOVICH

***PAULOWNIA TOMENTOSA, CHITALPA TASHKENTENSIS, VINCA
MINOR* O‘SIMLIKLARINING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI VA
ULARDAN ATMOSFERA HAVOSINI OPTIMALLASHTIRISHDA
FOYDALANISH (SAMARQAND SHAHRI MISOLIDA)**

03.00.10 – Ekologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Nukus – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/B842 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ibb-nuu.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xaydarov Xislat Qudratovich
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xo'janazarov O'ktam Eshtemirovich
biologiya fanlari doktori, dotsent

Matjanova Xolida Kazakbayevna
biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq tabiiy fanlar ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.04.2021.B.79.01 Ilmiy kengashning 2023-yil «___» _____ soat ___ dagi majlisida bo'ladi (Manzil: 230100, Nukus shahri, Berdaq shox ko'chasi 41, institut kichik majlislar zali. Tel: (+99861) 2221744, (+99861) 2229672, faks: (+99861) 2221744, e-mail: aknuk@mail.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq tabiiy fanlar ilmiy-tadqiqot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «_____» _____ kuni tarqatildi.
(2023-yil «_____» _____ dagi № _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

Mambetullaeva S.M.

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d., professor

Utemuratova G.N.

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD

Matchanov A.T.

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda biologik xilma-xillikning o'zgarishi va urbanizasiya darajasining jadal suratlarda ortishi, sanoat va ishlab chiqarishning rivojlanishining shaharlar ekologiyasiga salbiy ta'siri ortib borayotgan davrda manzarali va ekologiyani optimallashtiruvchi o'simlik turlarini tadqiq etish hamda ulardan samarali foydalanish zamonaviy botanika va ekologiyaning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda atrof-muhit ifloslanish darajasini oldini olish, biologik xilma-xillikni saqlash, o'simliklar dunyosini muhofaza qilish hamda ulardan samarali foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shunga ko'ra, shahar hududlarini ko'kalamzorlashtirish, ekologiyani optimallashtiruvchi manzarali o'simlik turlarini aniqlash va ularni muhofaza qilish va ko'paytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish hamda ularning bioekologik, bioindikatorlik xususiyatlari va tabiiy va suniy populyasiyalarini tadqiq etish ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda tabiiy holda tarqalgan manzarali va atrof-muhitning texnogen ifloslanish darajasini oldini oluvchi o'simlik turlarini aniqlash, ularni introduksiya sharoitida ko'paytirish, ulardan ko'kalamzorlashtirish, shahar ekologik muhitini optimallashtirishda hamda ularning manzaralilik xususiyatlarini oshirish bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, jumladan, mahalliy iqlim sharoitlariga moslashish darajasi yuqori bo'lgan, noyobligi va manzaraliligi, noqulay ekologik omillarga chidamliligi, ekologiyani optimallashtiruvchi manzarali o'simlik turlari kompozitsiyalaridan foydalanish, bioindikatsiya, fitoremediasiya nuqtai nazaridan o'simlik turlari imkoniyatlarini baholash va manzaralilik xususiyatlarini o'rganish hamda amaliyotga joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda govjum aholi yashash hududlari, shaharlar va xiyobonlarni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirishda hududlarning tabiiy iqlim sharoitlariga mos keluvchi manzarali, atrof-muhit ekologik holatini optimallashtiruvchi o'simlik turlari va ularning fenologik xossalarini o'rganish va amaliyotga tadbiq qilish bo'yicha muayyan natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida¹ " ... atrof-muhitga zarar yetkazuvchi ekologik muammolarning oldini olish" vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda jumladan, respublikamizning markaziy shaharlarida ekotizimning pollyutantlar bilan ifloslanish darajasini aniqlash, bioindikatsiya va optimallashtirish choralarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrda PF-46-son «Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 22 yanvardagi

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони.

«O‘zbekiston Respublikasi aholi punktlarini obodonlashtirishni yaxshilash yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-1045-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27.maydagi 434-son “O‘zbekiston Respublikasida Ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekiston Respublikasi tuproq-iqlim sharoitida manzarali o‘simliklar (*Pyracantha coccinea* Roem; *Spiraea hypericifolia* L.; *Lauracerasus officinalis* M.Roem; *Lagerstroemia indica* L.; *Weigela praecox* (Lemoine) L.H.Bailey; *Paulownia tomentosa* (Thunb.) Steud); *Vinca minor* L., *Chitalpa tashkentensis* T.S.Elias & Wisura) bioekologiyasi, shahar ekologiyasini optimallashtirishda mazkur turlardan foydalanish bo‘yicha tadqiqotlar F.N.Rusanov (1968), A.A.Abduraxmanov va I.T.Slavkina (1980), A.Q.Qayimov, Dj.Turok (2012), M.M.Qalandarov, Ye.A. Dobronravova (2013, Sh.A.Xolova, K.S. Safarov (2013), Sh.A.Xolova (2014), R.B.Norboboyeva va boshq (2016), E.T.Berdiyev, G.B. Maxmudova (2017), Sh.A.Xolova va boshq (2018), K.S.Safarov (2019), Sh.A.Xolova, K.S.Safarov (2019), O.S. Charishnikova (2019). va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan.

Yetakchi horijiy ilmiy markazlarida shahar ekologiyasini optimallashtirishda tez biomassa hosil qiluvchi, manzarali, noqulay tashqi-muhit omillariga chidamli o‘simlik turlarining, jumladan *Paulownia tomentosa* (Thunb.) Steud) istiqbolli optimal turlardan biri hisoblanishi, og‘ir metallar akkumulyatsiyasi va bioremediasiya maqsadida foydalanish mumkinligi bo‘yicha ilmiy ma’lumotlar A.J.Tashekova, A.S.Toropov (2017), N.S.Davidova va boshq. (2018), Ye.A.Shadenova va boshq. (2018) kabi olimlarning ishlarida yoritilgan.

MDH davlatlarining sanoati rivojlangan shaharlarida ekologik muhitning optimizatsiyasida hamda shaharlarni ko‘kalamzorlashtirishda iqlim sharoitlariga oson moslashuvchan o‘simlik turlarini tanlash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar Yu.Z.Kulagin (1985), N.B.Getko (1989), V.S.Nikolayevskiy (1990) va N.S.Saidov (2010) kabilarning ilmiy ishlarida keltirilgan.

Biroq, mazkur tadqiqot ishlarida keltirilgan ma’lumotlar umumiy tavsifga egaligi, shuningdek hududiy shaharlarda amalga oshirilmaganligi sababli masala yechimida to‘liq ma’lumotlarni bera olmaydi. Shunga ko‘ra, yirik shaharlar ekologiyasini optimallashtirishda manzarali o‘simlik turlarining bioremediasiya maqsadlarida istiqbollarini ilmiy asoslangan holatda baholash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning dissertasiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlar rejasiga muvofiq №SBio-03 “Janubi-G‘arbiy O‘zbekiston florasining bioxilma-xilligini

o'rganish, innovatsion tadqiqotlar o'tkazish va ularni muhofaza qilishning biologik asoslarini aniqlash" mavzusi diorasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Samarqand shahrida *Paulownia tomentosa* (Thunb.) Steud.), *Chitalpa tashkentensis* (T.S.Elias & Wisura), *Vinca minor* (var. *typica* C.K.Schneid.) o'simlik turlarining bioekologik tavsifi va bioremediasiya xususiyatlarini asoslash hamda atrof-muhitning og'ir metallar bilan ifloslanish darajasini monitoring qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Samarqand shahri tuproq-iqlim sharoitida *Paulownia tomentosa*, *Chitalpa tashkentensis*, *Vinca minor* o'simlik turlari fenologiyasini aniqlash;

Samarqand shahar sharoitida tuproq gorizontlarida (0-20 sm, 20-60 sm) va *Paulownia tomentosa*, *Chitalpa tashkentensis*, *Vinca minor* o'simlik turlari vegetativ-generativ organlarida og'ir metallarni miqdori dinamikasini aniqlash;

Turli darajada og'ir metallar bilan ifloslangan Samarqand shahar hududlarida *Paulownia tomentosa*, *Chitalpa tashkentensis*, *Vinca minor* bargida suv rejimi va fotosintetik pigmentlar miqdoriy ko'rsatkichlarini qiyosiy baholash;

Og'ir metallar bilan turli darajada ifloslangan Samarqand shahri hududlarida *Paulownia tomentosa*, *Chitalpa tashkentensis*, *Vinca minor* o'simlik turlarini bioremediasiya, bioindikatorlik imkoniyatlarini baholash hamda bioremediasiya va bioindikatorlik xususiyatlari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Samarqand shahrida turli darajada og'ir metallar bilan ifloslangan hududlarga ekilgan *Paulownia tomentosa*, *Chitalpa tashkentensis*, *Vinca minor* o'simlik turlari olingan.

Tadqiqotning predmeti Samarqand shahrida *Paulownia tomentosa*, *Chitalpa tashkentensis*, *Vinca minor* o'simliklarining bioekologik tavsifi, atrof-muhitning og'ir metallar bilan ifloslanish darajasi, bioremediasiya hamda bioindikatorlik xususiyatlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertasiyada standart ekologik (dala), fenologik kuzatish, anatomik, morfologik, fiziologik (Nichipirovich, Ivanov) standart, plazmali bog'langan optik emission spektrometriya hamda olingan natijalarni qayta ishlashda statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Paulownia tomentosa, *Chitalpa tashkentensis*, *Vinca minor* turlarining fenologiyasi, sovuqqa chidamliligi, barglari uzoq muddat yashil holda saqlanishi aniqlangan.

kimyoviy ishlab chiqarish hududlari, avtomagistrallar atrofi tuproqlarida (0-20 sm, 20-60 sm) og'ir metallar (As, Cd, Pb, Zn) yuqori konsentrasiyada to'planishi hamda *Paulownia tomentosa*, *Chitalpa tashkentensis*, *Vinca minor* o'simlik turlari vegetativ-generativ organlarida og'ir metallar spesifik tavsifda, yuqori konsentrasiyada to'planishi asoslangan.

kimyoviy ishlab chiqarish hududlari, avtomagistrallar hududida *Paulownia tomentosa*, *Chitalpa tashkentensis*, *Vinca minor* bargida suv rejimi ko'rsatkichlari, mazkur turlarning tashqi-muhit omillari ta'siriga chidamlilik darajasi yuqoriligini ko'rsatishi hamda xlorofill «a», xlorofill «b», karotinoid miqdori va «a», «b» ko'rsatkichlari tahlili asosida fotosintetik apparat adaptasiya darajasi, faolligi yuqoriligi aniqlangan.

Atmosfera havosi og'ir metallar bilan ifloslangan zonalarda *Paulownia tomentosa*, *Chitalpa tashkentensis*, *Vinca minor* turlaridan, pollyutantlarni yuqori konsentratsiyada to'plagan uchun, Samarqand shahri ekotizimida atrof-muhitning og'ir metallar bilan ifloslanish darajasi monitoringida bioindikator, fitobioremediasiya maqsadlarida foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Respublika miqyosida bioremediasiya maqsadlarida *Paulownia tomentosa*, *Chitalpa tashkentensis*, *Vinca minor* o'simlik turlaridan foydalanish istiqbollari aniqlangan va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Paulownia tomentosa, *Chitalpa tashkentensis* o'simlik turlarida o'sish ko'rsatkichlari yuqori ekanligi, tashqi muhitdagi uglerod oksidlari va boshqa gazlarni ko'p miqdorda o'zlashtirish xususiyatidan foydalanib, shahar muhitini ko'klamzorlashtirish landshaft-dizayn uchun ham muhim ahamiyatga egaligi aniqlangan va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda foydalanilgan zamonaviy standart ekologik, fenologik kuzatish, anatomik, morfologik, fiziologik (Nichipirovich, Ivanov), standart, plazmali bog'langan optik emission spektrometriya usullari va qurilmalar, olingan natijalarni statistik tahlil usulda qayta ishlash, olingan natijalarning respublika va xalqaro anjumanlardagi muhokamasi, resenziyalangan ilmiy nashrlarda chop etilishi, ekspertlar tomonidan tasdiqlanganligi hamda amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati olingan natijalar *Paulownia tomentosa*, *Chitalpa tashkentensis*, *Vinca minor* o'simlik turlarining bioekologik tavsifi, atrof-muhitning og'ir metallar bilan ifloslanish darajasini monitoring qilish, bioremediasiyada mazkur o'simlik turlaridan foydalanish istiqbollari haqidagi nazariy bilimlar diapazonini kengaytirishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqotlarda erishilgan natijalarga asoslanib Respublika miqyosida bioremediasiya maqsadlarida *Paulownia tomentosa*, *Chitalpa tashkentensis*, *Vinca minor* o'simlik turlaridan foydalanish istiqbollari hamda atrof-muhitni biomonitringi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. *Paulownia tomentosa*, *Chitalpa tashkentensis*, *Vinca minor* o'simliklarining bioekologik xususiyatlari va ulardan atmosfera havosini optimallashtirishda foydalanish (Samarqand shahri misolida) bo'yicha olingan natijalar asosida:

Paulownia tomentosa, *Chitalpa tashkentensis*, *Vinca minor* o'simlik turlari tuproqlarda og'ir metallarni akkumulyasiyalashi, turli iqlim sharoitlaridagi chidamlilik xususiyatlari, bioekologik xususiyatlari, ekotizim optimizasiyasini ta'minlashi, atmosfera havosini optimallashtirish xususiyatlari Samarqand viloyati Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining 2022 yil 7 dekabrda 0302/7-3552-son ma'lumotnomasi). Natijada, *Paulownia tomentosa*, *Chitalpa tashkentensis*, *Vinca minor* o'simlik turlari bioremediasiya xususiyatini namoyon qilib, ekotizim optimizasiyasini ta'minlab atrof-muhitni optimallashtirish imkonini bergan.

Paulownia tomentosa (Thunb.) Steud turining bioekologik tavsiflari turlarining fenologiyasi, barglari uzoq muddat yashil holda saqlanishi og'ir metallarni yuqori konsentrasiyada to'planishi, vegetativ-generativ organlarida og'ir metallarni yuqori konsentrasiyada to'planishi, xlorofill «a», xlorofill «b», karotinoid miqdori, fotosintetik apparat adaptasiya darajasi Guliston davlat universitetining ALM-202107011 raqamli «Sirdaryo viloyatining tabiiy sharoitida moslashtirilgan tarzda pavlovniya o'simligini yetishtirish texnologiyasi» mavzusidagi loyihasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 7 oktyabrdagi 89-02-838-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, *Paulownia tomentosa* (Thunb.) Steud daraxt turini ko'paytirish usullarini ilmiy asoslash, uning ekologik muhitni optimallashtirishdagi ahamiyatini baholash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Dissertatsiya ishining tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 9 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konfrensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ish chop etilgan. Shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanigan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 105 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotlar dolzarbligi, zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, obyekt, predmetlari tavsiflangan, fan va texnologiyalar rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqot ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalar ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "*Paulownia tomentosa* (Thunb) Steud; *Chitalpa tashkentensis* T.S.Elias & Wisura; *Vinca minor* var. *typica* C.K.Schneid o'simliklari bioekologik tavsifi" deb nomlangan birinchi bobida *Paulownia tomentosa*, *Chitalpa tashkentensis*, *Vinca minor* botanik, bioekologik tavsifi, urbanizatsiya darajasi yuqori shahar ekologik muhitini optimallashtirishda o'simlik turlarning ahamiyati, Pb, Cd, Zn, Ni, Mn, Co, Fe, Cr va boshqalar – asosiy pollyutantlar sifatida, atrof-muhitning og'ir metallar bilan ifloslanish darajasi monitoringida fitoindikatorlardan foydalanish, manzarali o'simlik sifatida foydalanish, fotosintetik pigmentlar miqdoriy ko'rsatkichlari – o'simlik bioekologik holati obyektiv indikator, bioremediasiya jarayonida o'simliklardan foydalanish istiqbollari yuzasidan ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Tadqiqot hududining gidrogeografik, iqlim-meteorologik tavsifi, o'simlikda ayrim fiziologik jarayonlar intensivligi tahlili uslublari**" deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot sharoiti va obykti tadqiqot hududining gidrogeografik, iqlim-meteorologik tavsifi, o'simlik qoplami,

tadqiqotlarni o‘rganish usullari (biomaterial sinov namuna, tuproqdagi og‘ir metallar, o‘simlik biomateriali tarkibidagi og‘ir metallarni hamda o‘simlik suv rejimi ko‘rsatkichlari, fotosintetik pigmentlar, mikroskopik taxlil, matematik - statistik qayta ishlash uslublari) bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertasiyaning “**Samarqand shahri sharoitida *Paulownia tomentosa* (Thunb.) Steud.; *Chitalpa tashkentensis* T.S.Elias & Wisura; *Vinca minor* var. *typica* C.K.Schneid. o‘simlik turlarining bio-ekologik xususiyatlari**” deb nomlangan uchinchi bobida *Paulownia tomentosa*, *Chitalpa tashkentensis*, *Vinca minor* turlarining rivojlanish fazalari davomiyligi, Samarqand shahri tuproq-iqlim sharoitida *Paulownia tomentosa*, *Chitalpa tashkentensis*, *Vinca minor* o‘simlik turlarining fenologiyasi, *Paulownia tomentosa*, *Chitalpa tashkentensis*, *Vinca L.* turlari barglari va novdalarining morfo-anatomik tuzilish xususiyatlari o‘rganilgan va baholangan.

Dissertasiyaning “**Tadqiqot hududida tuproq tarkibidagi og‘ir metallar konsentrasiyasi tahlili**” to‘rtinchi bobida *Paulownia tomentosa*, *Chitalpa tashkentensis*, *Vinca minor* vegetativ-generativ organlari biomassasi tarkibida og‘ir metallar konsentrasiyasi tahlili, og‘ir metallar bilan turli darajada ifloslangan sharoitda *Paulownia tomentosa*, *Chitalpa tashkentensis*, *Vinca minor* o‘simlik turlarida suv rejimi ko‘rsatkichlari miqdoriy tahlili, og‘ir metallar bilan turli darajada ifloslangan sharoitda *Paulownia tomentosa*, *Chitalpa tashkentensis*, *Vinca minor* o‘simlik turlari bargida fotosintetik pigmentlar miqdoriy ko‘rsatkichlari tahlili eksperimental tadqiqotlar natijalari va tahlili keltirilgan.

Paulownia tomentosa *Chitalpa tashkentensis*, *Vinca minor* turlari *fenologiyasi*. Samarqand shahrida (nazorat guruhi – SamDU Botanika bog‘i) *Paulownia tomentosa* o‘simligida barglar 11-18.II–10-15.III sanada shakllanishi ($l=16,5-18,4$ sm), 20-30.XI gacha yashil holatda saqlanishi, izg‘iriqsimon to‘pgulda ($l=14,3-28,4$ sm) naychasimon-qo‘ng‘iroqcha shakldagi, och sarg‘ish, oqish-havorang-och binafsha rang dog‘li gullari ($\varnothing=4,3-6,2$ sm) 5-12.IV–4-8.V sanada ochilishi, yashil (pishib-yetilgan holatda to‘q qo‘ng‘ir), tuxumsimon-yong‘oqcha shaklidagi ko‘sak mevada ($l=3,2-4,4$ sm) qanotchali urug‘lari ($l=1,3-2,8$ mm) 15-24.VI–9-15.XI sanada pishib-yetilishi, ikki tavaqali ko‘saklari 4-28.I–2-12.II sanasida ochilishi, qanotchali urug‘lari o‘simlikdan 3-5 metrgacha tarqalishi, iyul-avgustda yangi to‘pgul, gul kurtaklari hosil qilib, kelgusi yilda aprel oyida ochilishi aniqlandi (1-jadval; 1-rasm).

1-jadval

Samarqand shahrida *Paulownia tomentosa* rivojlanish fazalari davomiyligi

T/r	Rivojlanish fazalari	Davomiylilik davri	
		Boshlanish davri	Yakunlanish davri
1.	Barg chiqarish	11-18.II	10-15.III (bargning to‘liq shakllanishi)
2.	Gullash	5-12.IV	4-8.V
3.	Urug‘larining pishib-yetilishi	15-24.VI	9-15.XI

Izoh: Fenologik kuzatishlar 2019-2021 yillarda SamDU Botanika bog‘i (Samarqand sh., Oliygo‘h ko‘chasi, 15-uy) hududida amalga oshirildi.



1-rasm. *Paulownia tomentosa* A. Samarqand shahri sharoitida 2 yillik daraxt ko'chati. B. Mevali novdasi (24.VI.2020). V. Barg morfometrik tahlili (Samarqand shahri, 2021 y.).

Samarqand shahri sharoitida *Paulownia tomentosa* urug'i 12.IV sanasida ekilganda 23-27.IV sanasida unib chiqishi, ko'chatlar 5-10.IX sanasida 74,5-86,4 sm o'sishi, vegetasiya 2-yilida 15.VI sanasida 2,4-3,6 m ga yetishi, ildizi tuproqda 28,7-34,5 sm kirishi, 5-10 yillik daraxti $l=9-12$ m ga yetishi aniqlandi. *Paulownia tomentosa* botanik tavsiflari, fenologiyasi mavjud adabiyot ma'lumotlariga mos keladi (Tkachenko, 2013; Shurganov va boshq., 2015; Uskov va Toropov, 2018; Davidova va boshq., 2018).

Paulownia tomentosa sovuqqa ($-25...-28^{\circ}\text{S}$) chidamli bo'lib (Davidova va boshq., 2018), Samarqand shahrida kech kuzda (IX-X.2019) harorat -22°S sharoitda ham barglari yashil holatda saqlanishi, avtomagistrallar atrofida, kam sug'oriladigan tuproqlarda optimal o'sib-rivojlanishi kuzatildi.

Paulownia tomentosa shaharda turli sharoitlarda optimal o'sib-rivojlanishi, sho'rlanish, qurg'oqchilikka chidamliligi tasdiqlangan (Barton et al., 2007; Duran et al., 2013; Tishenko va Yakuba, 2014).

Chitalpa tashkentensis T.S.Elias & Wisura Samarqand shahrida 3-6.II–5-12.III sanada barglari ($l=11,6-16,5$ sm) to'liq shakllanishi, och-pushti gullari ($l=5-6$ sm, eni 3-4 sm) 6-8.III–24-28.X sanada ochilishi, 3-yilda bo'yi 4-8 metrga yetishi kuzatildi.

2-jadval

Samarqand shahrida *Chitalpa tashkentensis* rivojlanish fazalari

T/r	Rivojlanish fazalari	Davomiylik davri	
		Boshlanish davri	Yakunlanish davri
1.	Barg chiqarish	3-6.II	5-12.III (to'liq shakllanishi)
2.	Gullash	6-8.III	24-28.X

Izoh: Fenologik kuzatishlar 2019-2020 yillarda SamDU Botanika bog'i (Samarqand sh., Oliygo'ha ko'chasi, 15-uy) hududida amalga oshirildi.

Chitalpa tashkentensis mart-oktyabr-noyabrda birinchi sovuq tushishiga qadar och-binafsha gullarga ega manzarali peyzaj hosil qilib, fenologik kuzatishlar mavjud adabiyot ma'lumotlariga mos keladi (Xolova, 2019; Xolova va Qalandarov, 2014).

Vinca minor Samarqand shahrida tik turuvchi ($l=18,2-26,5$ sm), sudralib o'suvchi poyada ($l=43,6-54,8$ sm) «doimiy yashil» barglari 5-11.II–19-24.II sanada to'liq rivojlanishi, ko'k-havorang guli ($\sigma=2,6-5,3$ sm) ochilishi 10-14.III–2-10.VI sanagacha davom etishi, urug'lari 12-16.VI–25-30.VI sanada pishib-yetilishi aniqlandi (3-jadval).

3-jadval

Samarqand shahri tuproq-iqlim sharoitida *Vinca minor* o'simligining rivojlanish fazalari

T/r	Rivojlanish fazalari	Davomiylik davri	
		Boshlanish davri	Yakunlanish davri
1.	Barg chiqarish	5-11.II	19-24.II (to'liq shakllanishi)
2.	Gullash	10-14.III	2-10.VI
3.	Urug'larni pishib-yetilishi	12-16.VI	25-30.VI

Samarqand shahrida *Vinca minor* «doimiy yashil» barglari noyabr-dekabrda xam kuzatilishi, keng spektrda iqlim sharoitlarida optimal o'sib-rivojlanishi aniqlandi.

Shunday qilib, Samarqand shahrida *Paulownia tomentosa*, *Chitalpa tashkentensis*, *Vinca minor* var o'ziga xos fenologiyaga ega istiqbolli turlar hisoblanadi.

Tuproqda va *Paulownia tomentosa*, *Chitalpa tashkentensis*, *Vinca minor* vegetativ-generativ organlarida og'ir metallar. Tadqiqotlar navbatdagi bosqichida biologik «eng xavfli» og'ir metallarning (As, Cd, Pb, Zn) tuproq, o'simlik biomaterialida miqdori tahlil qilindi.

Nazorat guruhida (I) tuproqda (0-20 sm) As, Cd, Pb, Zn konsentrasiyasi mos ravishda – 3,86±0,46, 4,18±0,31, 13,63±0,44, 76,22±2,03 mg/kg, tajriba guruhlarida (II, III) mos ravishda – 4,04±0,32, 6,65±0,34, 24,47±3,8, 154,47±4,4 va 4,65±0,14, 5,74±0,23, 28,63±2,5, 143,63±3,2 mg/kg, shuningdek, nazorat guruhida 20-60 sm gorizontda mos ravishda – 3,84±0,48; 3,73±0,25; 12,85±0,12 va 64,25±1,24 mg/kg, tajriba guruhlarida (II, III) mos ravishda – 5,78±0,24; 8,09±0,37; 36,26±4,1; 146,07±3,3 hamda 7,37±0,18; 6,87±0,28; 47,05±2,4; 135,54±3,6 mg/kg ga tengligi aniqlandi (4-jadval).

4-jadval

Samarqand shahri tadqiqot hududlarida tuproqda (0-20,20-60 sm) og'ir metallar (As, Cd, Pb, Zn) konsentrasiyasi (mg/kg) ($M \pm m$)

T/r	Tajriba variantlari (hudud)	Og'ir metallarning konsentrasiyasi (mg/kg)			
		As	Cd	Pb	Zn
Tuproq gorizonti (0-20 sm)					
1.	I (Nazorat)	3,86±0,46	4,18±0,31	13,63±0,44	76,22±2,03
2.	II (Tajriba)	4,04±0,32*	6,65±0,34**	24,47±3,8**	154,47±4,4**
3.	III (Tajriba)	4,65±0,14*	5,74±0,23*	28,63±2,5**	143,63±3,2**
Tuproq gorizonti (20-60 sm)					
1.	I (Nazorat)	3,84±0,48	3,73±0,25	12,85±0,12	64,25±1,24
2.	II (Tajriba)	5,78±0,24**	8,09±0,37**	36,26±4,1**	146,07±3,3**
3.	III (Tajriba)	7,37±0,18**	6,87±0,28**	47,05±2,4**	135,54±3,6**

Izoh: I. SamDU Botanika bog'i (Samarqand sh., Oliygo'ha ko'chasi, 15-uy); II. «Samarqandkimyo» AJ (Samarqand sh., Kimyogarlar posyolkasi); III. Samarqand sh. Rudakiy shoh ko'chasi. (Ob-havo harorati $t=+38^{\circ}\text{S}$; havo nisbiy namligi 45,6%). * – nazoratga nisbatan $r<0,05$, ** – $r<0,01$ ($n=3-4$).

Nazorat guruhida (I) tuproqda (0-20 sm; 20-60 sm) As, Cd, Pb, Zn sezilarli farqlanmasligi, As deyarli tengligi, Cd 20-60 sm da 10,75%, Pb 5,52%, Zn 15,71%

ga kamayishi, tajriba guruhlarida (II, III) 0-20 sm, 20-60 sm da As nazoratga nisbatan mos ravishda – 4,66; 20,46 va 49,74; 91,93% ga ortishi, Cd mos ravishda – 59,09; 37,32 va 116,89; 84,18% ga ortishi, Pb mos ravishda – 79,53; 110,05 va 182,18; 266,15% ga ortishi, Zn mos ravishda – 102,66; 88,44 hamda 127,35; 110,96% ga ortishi aniqlandi.

Tadqiqotlarda *Paulownia tomentosa* vegetativ-generativ organlarida og‘ir metallar tahlil qilindi (5-jadval).

5-jadval

Paulownia tomentosa vegetativ-generativ organlarida og‘ir metallar konsentratsiyasi (mg/kg) ($M\pm m$)

T/r	Pavlovniya (<i>Paulownia tomentosa</i> (Thunb.) Steud., 1841)	Og‘ir metallar konsentratsiyasi (mg/kg)			
		As	Cd	Pb	Zn
I (Nazorat)					
1.	Ildiz	0,72±0,06	2,65±0,04	1,17±0,08	23,52±2,87
2.	Novda	0,27±0,04	0,82±0,07	2,46±0,07	47,73±3,18
3.	Barg	0,54±0,07	1,84±0,05	3,24±0,19	52,65±3,38
4.	Gul-meva	0,42±0,05	0,47±0,06	1,78±0,18	14,25±1,47
II (Tajriba)					
1.	Ildiz	3,10±0,08**	4,34±0,05**	2,45±0,08*	42,04±2,65**
2.	Novda	3,04±0,05**	1,28±0,08*	3,76±0,03*	54,45±2,34*
3.	Barg	3,12±0,06**	3,63±0,06**	6,85±0,54**	86,64±2,05*
4.	Gul-meva	2,09±0,04**	1,18±0,04*	2,47±0,05**	44,38±3,16**
III (Tajriba)					
1.	Ildiz	3,24±0,06**	4,73±0,04**	2,76±0,06*	38,18±1,63**
2.	Novda	3,65±0,04**	1,33±0,06*	3,34 ±0,17**	51,25±2,35*
3.	Barg	4,07±0,03**	3,78±0,05**	6,73±0,15**	78,66±3,44**
4.	Gul-meva	2,36±0,05**	1,57±0,03**	2,68±0,03**	45,27±2,25**

Izoh: I.SamDU Botanika bog‘i (Samarqand sh., Oliyogoh ko‘chasi, 15-uy), II. «Samarqandkimyo» AJ (Samarqand sh., Kimyogarlal posyolkasi), III. Samarqand shahri Rudakiy shoh ko‘chasi (Ob-havo harorati $t=+38^{\circ}\text{S}$; havo nisbiy namligi 45,6%). * – nazoratga nisbatan $r<0,05$, ** – $r<0,01$ ($n=3-4$).

Paulownia tomentosa ildizida As nazoratda (I) 0,72±0,06 mg/kg, tajriba guruhlarida (II, III) nazoratga nisbatan mos ravishda – 3,3 marta (330,55%), 3,5 marta (350%) ortishi, novdada nazoratga (0,27±0,04 mg/kg) nisbatan mos ravishda – 10,2 marta (1025,93%), 13,5 marta (1351,85%) ortishi, bargda nazoratga (0,54±0,07 mg/kg) nisbatan mos ravishda – 4,7 marta (477,78%), 6,5 marta (653,71%) ortishi, generativ organlarda (gul-meva) nazoratga (0,42±0,05 mg/kg) nisbatan mos ravishda – 3,9 marta (397,62%), 4,6 marta (461,91%) ortishi, bunda As quruq og‘irlikka nisbatan bargda yuqori konsentratsiyada (3,12±0,06–4,07±0,03 mg/kg) to‘planishi, nazorat guruhiga nisbatan novdada maksimal ortishi (10,2-13,5 marta) aniqlandi.

Cd *Paulownia tomentosa* ildizida nazoratda (I) 2,65±0,04 mg/kg, tajriba guruhlarida (II, III) nazoratga nisbatan mos ravishda – 0,63 marta (63,77%), 0,78 marta (78,49%) ortishi, novdada nazoratga (0,82±0,07 mg/kg) nisbatan mos ravishda – 0,5 marta (56,09%), 0,62 marta (62,19%) ortishi, bargida nazoratga (1,84±0,05 mg/kg) nisbatan mos ravishda – 9,7 marta (97,28%), 1,05 marta (105,43%) ortishi, generativ organlarda nazoratga (0,47±0,06 mg/kg) nisbatan mos ravishda – 1,51 marta (151,06%), 2,34 marta (234,04%) ortishi, bunda quruq

og'irlikka nisbatan ildiz tarkibida yuqori konsentrasiyada ($4,34 \pm 0,05$ – $4,73 \pm 0,04$ mg/kg) to'planishi, nazoratga nisbatan generativ organlarda maksimal ortishi ($1,51$ – $2,34$ marta) aniqlandi.

Pb *Paulownia tomentosa* ildizida nazoratda (I) $1,17 \pm 0,08$ mg/kg bo'lib, tajriba guruhlarida (II, III) nazoratga nisbatan mos ravishda – 1,09 marta (109,4%), 1,35 marta (135,89%) ortishi, novdada nazoratga ($2,46 \pm 0,07$ mg/kg) nisbatan mos ravishda – 5,28 marta (52,85%), 3,57 marta (35,77%) ortishi, bargda nazoratga ($3,24 \pm 0,19$ mg/kg) nisbatan mos ravishda – 1,11 marta (111,42%), 1,07 marta (107,71%) ortishi, generativ organlarda (gul-meva) nazoratga ($1,78 \pm 0,18$ mg/kg) nisbatan mos ravishda – 0,38 marta (38,76%), 0,51 marta (50,56%) ortishi, Pb quruq og'irlikka nisbatan bargda maksimal konsentrasiyada ($6,85 \pm 0,54$ – $6,73 \pm 0,15$ mg/kg) to'planishi, nazorat guruhiga nisbatan novdada maksimal ortishi ($5,28$ – $3,57$ marta) aniqlandi.

Zn *Paulownia tomentosa* ildizida nazoratda (I) $23,52 \pm 2,87$ mg/kg bo'lib, tajriba guruhlarida (II, III) nazoratga nisbatan mos ravishda – 0,78 marta (78,74%), 0,62 marta (62,33%) ortishi, novdada nazoratga ($47,73 \pm 3,18$ mg/kg) nisbatan mos ravishda – 0,14 marta (14,08%), 0,73 marta (7,37%) ortishi, bargda nazoratga ($52,65 \pm 3,38$ mg/kg) nisbatan mos ravishda – 0,64 marta (64,56%), 0,49 marta (49,4%) ortishi, generativ organlarda (gul-meva) nazoratga ($14,25 \pm 1,47$ mg/kg) nisbatan mos ravishda – 2,11 marta (211,44%), 2,17 marta (217,54%) ortishi, bunda quruq og'irlikka nisbatan bargda yuqori konsentrasiyada ($78,66 \pm 3,44$ – $86,64 \pm 2,05$ mg/kg) to'planishi, nazorat guruhiga nisbatan generativ organlarda (gul-meva) maksimal ortishi ($2,11$ – $2,17$ marta) aniqlandi.

Navbatdagi tadqiqotlarda *Chitalpa tashkentensis* vegetativ-generativ organlarida og'ir metallar tahlil qilindi (6-jadval).

6-jadval

Chitalpa tashkentensis vegetativ-generativ organlarida og'ir metallar konsentratsiyasi (mg/kg) ($M \pm m$)

T/r	<i>Chitalpa tashkentensis</i> T.S.Elias & Wisura	Og'ir metallar konsentratsiyasi (mg/kg)			
		As	Cd	Pb	Zn
I (Nazorat)					
1.	Ildiz	$0,47 \pm 0,04$	$1,59 \pm 0,02$	$0,89 \pm 0,05$	$19,42 \pm 1,04$
2.	Novda	$0,14 \pm 0,02$	$0,75 \pm 0,01$	$0,64 \pm 0,02$	$12,42 \pm 1,06$
3.	Barg	$0,53 \pm 0,05$	$0,78 \pm 0,02$	$1,23 \pm 0,12$	$22,64 \pm 2,48$
4.	Gul-meva	$0,35 \pm 0,03$	$0,53 \pm 0,04$	$0,68 \pm 0,14$	$16,03 \pm 1,02$
II (Tajriba)					
1.	Ildiz	$0,74 \pm 0,06^{**}$	$2,36 \pm 0,06^{**}$	$1,34 \pm 0,05^{**}$	$26,08 \pm 1,43^*$
2.	Novda	$0,36 \pm 0,04^{**}$	$1,04 \pm 0,07^*$	$1,03 \pm 0,01^{**}$	$24,39 \pm 1,27^{**}$
3.	Barg	$0,76 \pm 0,05^{**}$	$1,62 \pm 0,04^{**}$	$1,84 \pm 0,37^*$	$46,42 \pm 2,43^{**}$
4.	Gul-meva	$0,49 \pm 0,03^*$	$0,72 \pm 0,03^*$	$0,77 \pm 0,03$	$23,38 \pm 1,07^*$
III (Tajriba)					
1.	Ildiz	$0,83 \pm 0,05^{**}$	$1,87 \pm 0,06^*$	$1,06 \pm 0,04^*$	$33,27 \pm 1,44^{**}$
2.	Novda	$0,43 \pm 0,03^{**}$	$0,94 \pm 0,01^*$	$1,31 \pm 0,06^{**}$	$25,05 \pm 1,04^{**}$
3.	Barg	$0,62 \pm 0,03^*$	$1,09 \pm 0,04^{**}$	$1,79 \pm 0,18^{**}$	$34,46 \pm 1,48^*$
4.	Gul-meva	$0,76 \pm 0,04^{**}$	$1,04 \pm 0,02^{**}$	$1,05 \pm 0,03^{**}$	$29,04 \pm 1,05^{**}$

Izoh: I. SamDU Botanika bog'i (Samarqand sh., Oliygo'ha ko'chasi, 15-uy); II. «Samarqandkimyo» AJ (Samarqand sh., Kimyogarlar posyolkasi); III. Samarqand shahri Rudakiy shoh ko'chasi. (Ob-havo harorati $t = +38^{\circ}\text{S}$; havoning nisbiy namligi 45,6%). * – nazoratga nisbatan $r < 0,05$, ** – $r < 0,01$ ($n = 3-4$).

Chitalpa tashkentensis T.S.Elias & Wisura ildizida As nazoratda (I) $0,47\pm 0,004$ mg/kg bo'lib, tajriba guruhlarida (II, III) nazoratga nisbatan mos ravishda – 1,57 marta (157,45%), 1,76 marta (176,59%) ortishi, novdada nazoratga ($0,14\pm 0,02$ mg/kg) nisbatan mos ravishda – 2,57 marta (257,14%), 3,07 marta (307,14%) ortishi, bargda nazoratga ($0,53\pm 0,05$ mg/kg) nisbatan mos ravishda – 1,43 marta (143,39%), 1,16 marta (116,98%) ortishi, generativ organlarda (gul-meva) nazoratga ($0,35\pm 0,03$ mg/kg) nisbatan mos ravishda – 1,4 marta (140%), 2,17 marta (217,14%) ortishi, bunda quruq og'irlikka nisbatan ildizda $0,47\pm 0,004$ – $0,83\pm 0,05$ mg/kg bo'lib, nazoratga nisbatan novdada maksimal (2,57–3,07 marta) ortishi aniqlandi.

Cd *Chitalpa tashkentensis* ildizida nazoratda (I) $1,59\pm 0,02$ mg/kg bo'lib, tajriba guruhlarida (II, III) nazoratga nisbatan mos ravishda – 1,48 marta (148,43%), 1,17 marta (117,61%) ortishi, novdada nazoratga ($0,75\pm 0,01$ mg/kg) nisbatan mos ravishda – 1,38 marta (138,67%), 1,25 marta (125,33%) ortishi, bargda nazoratga ($0,78\pm 0,02$ mg/kg) nisbatan mos ravishda – 2,07 marta (207,69%), 1,39 marta (139,74%) ortishi, generativ organlarda (gul-meva) nazoratga ($0,53\pm 0,04$ mg/kg) nisbatan mos ravishda – 1,35 marta (135,85%), 1,96 marta (196,23%) ortishi, bunda quruq og'irlikka nisbatan ildizda $1,59\pm 0,02$ – $2,36\pm 0,06$ mg/kg bo'lib, nazoratga nisbatan generativ organlarda (gul-meva) maksimal (1,35–1,96 marta) ortishi aniqlandi.

Pb *Chitalpa tashkentensis* ildizida nazoratda (I) $0,89\pm 0,05$ mg/kg bo'lib, tajriba guruhlarida (II, III) nazoratga nisbatan mos ravishda – 1,5 marta (150,56%), 1,19 marta (119,1%) ortishi, novdada nazoratga ($0,64\pm 0,02$ mg/kg) nisbatan mos ravishda – 1,6 marta (160,94%), 2,04 marta (204,69%) ortishi, bargda nazoratga ($1,23\pm 0,12$ mg/kg) nisbatan mos ravishda – 1,49 marta (149,59%), 1,45 marta (145,53%) ortishi, generativ organlarda (gul-meva) nazoratga ($0,68\pm 0,14$ mg/kg) nisbatan mos ravishda – 1,13 marta (113,24%), 1,54 marta (154,41%) ortishi, bunda quruq og'irlikka nisbatan barg tarkibida $1,23\pm 0,12$ – $1,84\pm 0,37$ mg/kg to'planishi, nazoratga nisbatan novdada maksimal (1,6–2,04 marta) ortishi aniqlandi.

Zn *Chitalpa tashkentensis* ildizida nazoratda (I) $19,42\pm 1,04$ mg/kg bo'lib, tajriba guruhlarida (II, III) nazoratga nisbatan mos ravishda – 1,34 marta (134,29%), 1,71 marta (171,32%) ortishi, novdada nazoratga ($12,42\pm 1,06$ mg/kg) nisbatan mos ravishda – 1,96 marta (196,38%), 2,01 marta (201,69%) ortishi, bargda nazoratga ($22,64\pm 2,48$ mg/kg) nisbatan mos ravishda – 2,05 marta (205,04%), 1,52 marta (152,21%) ortishi, generativ organlarda (gul-meva) tarkibida nazoratga ($16,03\pm 1,02$ mg/kg) nisbatan mos ravishda – 1,45 marta (145,85%), 1,81 marta (181,16%) ortishi, bunda quruq og'irlikka nisbatan bargda $22,64\pm 2,48$ – $46,42\pm 2,43$ mg/kg to'planishi, nazorat guruhiga nisbatan novdada maksimal (1,96–2,01 marta) ortishi aniqlandi.

Navbatdagi tadqiqotlarda *Vinca minor* var. *typica* vegetativ-generativ organlarida og'ir metallar tahlil qilindi (7-jadval).

Vinca minor var. *typica* C.K.Schneid ildizida As nazoratda (I) $0,58 \pm 0,003$ mg/kg bo‘lib, tajriba guruhlarida (II, III) nazoratga nisbatan mos ravishda – 2 marta (200%), 2,15 marta (215,52%) ortishi, novdada nazoratga ($0,37 \pm 0,02$ mg/kg) nisbatan mos ravishda – 2,83 marta (283,78%), 4,45 marta (445,95%) ortishi, bargda nazoratga ($0,43 \pm 0,004$ mg/kg) nisbatan mos ravishda – 2,74 marta (274,42%), 2,41 marta (241,86%) ortishi, generativ organlarda (gul-meva) nazoratga ($0,38 \pm 0,06$ mg/kg) nisbatan mos ravishda – 1,28 marta (128,95%), 3,65 marta (365,79%) ortishi, quruq og‘irlikka nisbatan novdada $0,37 \pm 0,02$ – $1,65 \pm 0,02$ mg/kg bo‘lib, nazoratga nisbatan novdada maksimal (2,83–4,45 marta) ortishi aniqlandi.

7-jadval

Vinca minor var. vegetativ-generativ organlarida og‘ir metallar konsentratsiyasi (mg/kg) ($M \pm m$)

T/r	<i>Vinca minor</i> var. <i>typica</i> C.K.Schneid.	Og‘ir metallar konsentratsiyasi (mg/kg)			
		As	Cd	Pb	Zn
I (Nazorat)					
1.	Ildiz	$0,58 \pm 0,03$	$1,32 \pm 0,02$	$1,23 \pm 0,04$	$16,54 \pm 1,47$
2.	Novda	$0,37 \pm 0,02$	$0,64 \pm 0,05$	$0,86 \pm 0,05$	$11,04 \pm 2,19$
3.	Barg	$0,43 \pm 0,04$	$1,04 \pm 0,02$	$1,57 \pm 0,12$	$25,68 \pm 2,05$
4.	Gul-meva	$0,38 \pm 0,06$	$0,87 \pm 0,01$	$1,04 \pm 0,07$	$17,03 \pm 1,06$
II (Tajriba)					
1.	Ildiz	$1,16 \pm 0,05^{**}$	$2,04 \pm 0,02^{**}$	$2,07 \pm 0,04^*$	$33,04 \pm 1,04^{**}$
2.	Novda	$1,05 \pm 0,02^{**}$	$1,05 \pm 0,04^*$	$1,74 \pm 0,02^*$	$14,43 \pm 2,07^*$
3.	Barg	$1,18 \pm 0,04^{**}$	$1,83 \pm 0,05^{**}$	$1,85 \pm 0,14^{**}$	$47,62 \pm 1,03^*$
4.	Gul-meva	$0,49 \pm 0,01^{**}$	$1,08 \pm 0,03^*$	$2,02 \pm 0,03^{**}$	$34,58 \pm 2,18^{**}$
III (Tajriba)					
1.	Ildiz	$1,25 \pm 0,04^{**}$	$2,73 \pm 0,03^{**}$	$2,73 \pm 0,02^*$	$37,16 \pm 1,02^{**}$
2.	Novda	$1,65 \pm 0,02^{**}$	$1,23 \pm 0,04^*$	$1,35 \pm 0,07^{**}$	$21,17 \pm 1,05^*$
